

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

“Himoyaga tavsiya etilsin”:
Fakultet dekani v.b.
f.f.n., dotsent Z.B.Qobilova
“do” 2019-y

5111200 – O'zbek tili va adabiyoti fakulteti
402 -guruh talabasi Ismoilova Sharofat Salimjon qizining
“Hozirgi o'zbek nasrida mumtoz adabiyot an'analari (Isajon Sulton asarlari
misolida)” mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:
Z.Qobilova,
o'zbek adabiyoti
kafedrasi dotsenti, f.f.n.
Taqrizchilar:
B. Hasanova,
o'zbek adabiyoti
kafedrasi katta o'qituvchisi, fil.f.f.d.(PhD)

M. Rasulova,
f.f.n., dotsent.

“Himoyaga tavsiya etilsin”:
O'zbek adabiyoti kafedrasi mudiri
f.f.n., dotsent M.Jamoliddinov
“do” 2019-y

X U L O S A S I

Har bir avlod oʻtmish adabiyotiga saylab munosabatda boʻladi, unga faol ijodiy yondashadi, salaflar tajribasini oʻz davri qoʻygan badiiy-estetik vazifalarni bajarishga xizmat qildiradi. Shunga koʻra, adabiy anʼana va yangilik yaʼni novatorlik hamqadamligi qonuniy hodisa boʻlib, bu ikkisi dialektik aloqadagi birlikni tashkil etadi va adabiyot taraqqiyotining muhim ichki omiliga aylanadi. Har bir davr oʻzidan oldingi davr adabiyotida mavjud eng yaxshi jihatlarni oʻziga singdiradi va unga nimadir qoʻshishga intiladi, shu asosda taraqqiyot jarayonining uzluksizligi taʼminladi.

Adabiyotdagi vorisiylik, adabiy anʼanalarga sodiqlik milliy adabiyotdagi oʻziga xoslik, milliy qiyofani yoʻqotmaslik kafolatidir. Tabiiyki, boy adabiy anʼanaga tayangan adabiyotning rivojlanish imkoniyatlari boshqalarga nisbatan yuqori boʻladi. Masalan, xalqimizning boy adabiy-madaniy anʼanalari XX asr boshlarida kuzatilgan yangi oʻzbek adabiyotining shakllanish jarayoni tez kechishini taʼminladi: Adabiyotimiz juda qisqa fursat ichida jahon adabiyotidagi yutuqlarning koʻpini ijodiy oʻzlashtiradi, oʻzining badiiy omborini boyitdi.

Aytalik, roman Gʻarb adabiyotiga xos janr ekanligini, uning oʻzbek adabiyotida oʻzlashishi 20-yillarga toʻgʻri kelishi maʼlum, biroq gʻarbona shakl milliy adabiyotimizni boyitdigiina emas, balki adabiy anʼanalarmiz zaminida uning oʻzi ham boyidi-oʻzbek romanchiligi dunyoga keldi.

Milliy romanchilgimizning ilk namunalaridan boshlab keyingi davr namunalarida ham ming yilliklar bilan oʻlchanadigan adabiy-madaniy anʼanalarmiz izlari bor.

talqinida mumtoz adabiy an'analarimizning davom etib kelayotganligini tahlilga tortadi.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, metodi, amaliy va nazariy ahamiyati, tuzilishi haqida so'z boradi.

BMI ikki bob hamda to'rt fasl asosida yoritilgan.

Birinchii bob **“Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanida mumtoz an'analar”** deb nomlanib, **““Boqiy darbadar” romani: yangi uslub va eskirmas mavzular talqini”** va **““Boqiy darbadar” asarida zamonaviy fan va umuminsoniy, milliy qadriyatlarning badiiy aksi”** fasllarini o'z ichiga oladi.

Mazkur bobda yozuvchi Isajon Sultonning hayotiy va ijodiy faoliyati, o'tgan davr mobaynida erishgan ijodiy yutuqlari, “Boqiy darbadar” romanining yaratilish tarixi, roman haqida davrimiz adabiy tanqidchilari, yozuvchilarimizning qarashlari va fikrlari haqida; shuningdek, “Boqiy darbadar” romanining uslubi, mavzusi va ushbu asarda o'z aksini topgan mumtoz an'analarimiz, asarga manbaa vazifasini o'tagan badiiy meroslarimiz haqida so'z boradi.

Ishning ikkinchi bobi **“Irsiyat muammolarining badiiy talqinida mumtoz ohanglar”** deb nomlanib ushbu bob **““Genetik” romanida mumtoz adabiyot vakillari ijodiga murojaat qilingan o'rinlar va ularning tahlili”** hamda **““Genetik” romanidagi toshbitiklardan olingan parchalarning asar kompozitsiyadagi o'rni”** fasllaridan iborat.

Mazkur bobda Isajon Sultonning 2018-yilda nashrdan chiqqan va mavzu jihatidan talaba avvalgi bobda tahlilga tortgan “Boqiy darbadar” romani bilan o'xshash “Genetik” romani talqini haqida so'z boradi. Bobning birinchi faslida talaba Ismoilova Sharofat “Genetik” romanida mumtoz adabiyot vakillari ijodiga murojaat qilingan o'rinlarni tahlilga tortadi. Asarni qismlarga bo'lib uning turli o'rinlarida uchragan mumtoz adabiyot vakillarining ijodiga to'xtaladi. Jaloliddin Rumiyan tortib Zahiriddin Muhammad Bobur ijodigacha uchraydigan ushbu romanni adabiy vorisiylik jihatidan o'rganadi, tahlil qiladi.

Keyingi faslda esa tarix adabiyotiga murojaat yanada qadimroq davrga

parchalarning asar kompozitsiyadagi o'rne" faslida asarda qadimiy toshbitiklarimizga qilingan murojaatlar tahlilga tortiladi va ularning asar kompozitsiyasidagi o'rne haqida mulohaza yuritiladi.

Talaba Ismoilova Sharofat mazkur boblarni yoritishda zamonaviy o'zbek nasri, zamonaviy o'zbek romanchiligi, shuningdek, Isajon Sulton qalamiga mansub romanlar va boshqa asarlari bilan ham yaqindan tanishib chiqqan. Tahlilga tortilgan asarlarni sinchkovlik bilan ko'zdan kechirgan. Bu holat asarlar tahlilidan ko'rinib turibdi.

Ish yakunida muayyan adabiy xulosalarga kelingan.

Mulohazatalab o'rinlar ham bor. Masalan, BMIning oxirgi faslida toshbitiklardan olingan parchalar ustida ishlashda faqatgina ularning tarixiga, kim tomonidan qachon topilganligi va toshbitik haqidagi ma'lumotlarga keltirilgan. Biroq parchalarning tahlili ochiq qolgan o'rinlar bor.

Shuningdek, talaba Ismoilova Sharofat BMI xulosasida ikki romanning o'xshash jihatlari haqida to'xtaladi. Bunday holatni adibning boshqa asarlarida ham uchratish mumkin. O'ylaymanki, bu o'xshashliklarni qiyosiy metod asosida tahlil qilib o'rganib chiqish talaba uchun yana bir yangi ilmiy ishga asos bo'ladi.

Umuman, bu mulohazalar ishning umumiy qimmatiga putur yetkazmaydi. Aksincha, yangi ilmiy izlanishlar uchun omil bo'lib xizmat qiladi. Ismoilova Sharofatning bitiruv malakaviy ishini tugallangan ilmiy tadqiqot sifatida himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:



filologiya fanlari nomzodi, dotsent Z.Qobilova

Qo'qon Davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti
402 guruh talabasi Ismoilova Sharofat Salimjon qizining
“Hozirgi o'zbek nasrida mumtoz adabiyot an'analari (Isajon Sulton
asarlari misolida)” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Roman janri o'zbek adabiyotida nisbatan yangi janr hisoblanadi. Chunki bizning adabiyotimiz poydevorini nazm ya'ni lirik meros tashkil qiladi. Ammo bundan roman o'zbek adabiyotiga begona janr deb xulosa chiqarish ham noo'rin. XX asrning boshlaridan bu janr o'zbek adabiyotiga ham kirib keldi. O'zbek adiblari qalami ostida romanchilik o'ziga xos va mos shakl-shamoyil topdi. G'arbona shakl hamda sharqona uslub birlashib yangi o'zbek milliy romanchiligini dunyoga keltirdi. O'zbek milliy romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriydan boshlab ko'plab qator o'zbek romannavis adiblari bu silsilani munosib davom ettirishmoqda. Bugungi o'zbek adabiyoti romanchiligi namoyondalari Murod Muhammad Do'st, Luqmon Bo'rixon, Ulug'bek Hamdam, Isajon Sulton kabilarni ana shu avlod vakillari sifatida e'tirof etish mumkin.

Talaba Ismoilova Sharofat o'z bitiruv malakaviy ishini zamonaviy o'zbek romanchiligining taniqli namoyondalaridan biri Isajon Sulton romanlari ustida olib borgan. Ta'kidlaganimizdek, ushbu janrda sharqona uslubning ta'sirini, mumtoz an'analarning rolini o'rgangan. Adibning ikki romani “Boqiy darbadar” va “Genetik” asarlaridagi mumtoz adabiyotimiz vakillari hamda qadim merosimizdan foydalanilgan o'rinlarni tahlilga tortgan. Ahamiyatli tomoni, ushbu romanlarning har ikkisi ham fanning eng ilg'or sohalaridan biri genoinjeneriya bilan bog'liq, aniq fanlar ilmiga asoslangan asarlar hisoblanadi. Bu kabi asarlar o'zbek adabiyotida hali yangilik hisoblanadi. Qaysidir ma'noda ushbu yo'nalishga qo'l urish yozuvchidan chuqur ilmiy izlanishni talab qiladi. Xuddi shunday izlanishni talaba Ismoilova Sharofat ham o'z ishida davom ettirgan. U faqat asarning badiiy mohiyatiga emas ilmiy asoslariga, shu bilan birga ilmni badiiy chog'ishtiruv bilan o'quvchi hukmiga havola etgan adib mahoratiga to'xtalgan.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, metodi, amaliy va nazariy ahamiyati, tuzilishi haqida so'z boradi.

Talaba bitiruv malakaviy ishida, nafaqat, Isajon Sultonning yuqoridagi ikki romani balki, Beruniy, Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, Navoiy, Bobur asarlariga ham murojaat qilgan. Qadimiy toshbitiklarimiz tarixiga yondashgan.

Talaba Ismoilova Sharofat o'z bitiruv malakaviy ishida zamonaviy o'zbek nasri, xususan, romanchiligida mumtoz an'analарimizning o'rni va ahamiyatini ilmiy-badiiy tahlillarda ko'rsatgan.

Ishni kuzatish davomida ayrim mulohazalar ham tug'ildi. Bugungi adabiyot o'quvchiga faqatgina badiiy zavq emas, bilim-ko'nikmalar bilan birga ilmga qiziqish uyg'ota olish, ruhlantirish xususiyatlariga ham ega bo'lishi kerak. Shu ma'noda talaba mana shu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarini boshqa adiblar, romanlar tahlilida ham davom ettirishi mumkin.

BMI bilan tanishib chiqqan holda ishni himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:



**B. Hasanova,
Fil.f.f.d.(PhD)**